

“INKLYUZIV TA’LIMNING PEDAGOGIK VA TASHKILIY SHARTLARI”

*Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar
fakulteti Logopediya yo’nalishi 2-kurs talabasi*

Ibragimova Durdona Dilmurod qizi

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika kafedrasi o’qituvchisi

Azimova Dilnoza Sherzodvna

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’limning pedagogik va tashkiliy shartlari, uning mamlakatimiz ta’lim tizimidagi o’rni hamda rivojlanish istiqbollari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “2020–2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” asosida barcha bolalarga, shu jumladan, imkoniyati cheklangan o’quvchilarga sifatli ta’lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratishning huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. Maqolada inklyuziv ta’limni amalga oshirishda pedagogik yondashuv, psixologik-pedagogik xizmatlar, moddiy-texnik baza va jamiyatda inklyuzivlik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, kuzatuvlar asosida inklyuziv ta’lim jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish bo’yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, pedagogik shartlar, tashkiliy shart-sharoitlar, imkoniyati cheklangan bolalar, ta’lim siyosati, integratsiya, psixologik-pedagogik yondashuv, inklyuzivlik madaniyati.

Аннотация: В данной статье освещаются педагогические и организационные условия инклюзивного образования, его место в системе образования нашей страны и перспективы развития. На основе принятой в Республике Узбекистан «Концепции развития инклюзивного образования в системе народного образования на 2020–2025 годы» анализируются правовые и организационные основы для создания равных возможностей получения качественного образования для всех детей, включая учащихся с ограниченными возможностями. В статье раскрывается важность педагогического подхода, психолого-педагогических услуг, материально-технической базы и формирования культуры инклюзивности в обществе для реализации инклюзивного образования. Также на основе наблюдений представлены проблемы в процессе инклюзивного образования и предложения по их устранению.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагогические условия, организационные условия, дети с ограниченными возможностями, образовательная политика, интеграция, психолого-педагогический подход, культура инклюзивности.

Abstract: This article highlights the pedagogical and organizational conditions of inclusive education, its place in the country's education system, and its development prospects. Based on the "Concept for the Development of Inclusive Education in the Public Education System for 2020–2025" adopted in the Republic of Uzbekistan, the legal and organizational foundations for creating equal opportunities for quality education for all children, including students with disabilities, are analyzed. The article reveals the importance of the pedagogical approach, psycho-pedagogical services, material and technical base, and the formation of an inclusive culture in society for the implementation of inclusive education. Furthermore, based on observations, the problems in the inclusive education process and proposals for their elimination are presented.

Keywords: inclusive education, pedagogical conditions, organizational conditions, children with disabilities, educational policy, integration, psycho-pedagogical approach, culture of inclusivity.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatida fuqarolarning kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeyi hamda sog'lig'idan qat'iy nazar, barcha darajadagi sifatli ta'lim olishlari uchun teng sharoitlar yaratish Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda gi PQ-4860-son qarorga muvofiq "2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqilib, uni amalga oshirish mexanizmlari va yo'l xaritasi shakllantirilgan.

Unda Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Bola huquqlari bo'yicha vakil, Bosh prokuratura, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya-

larini rivojlantirish vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda boshqa mas'ul tashkilotlar muvofiqlashgan holda o'z vakolatlari doirasida ushbu konsepsiyani amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmonining 8-bandining 1-kichik bandiga muvofiq "Yangi tashkil qilingan va qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralar faoliyati tugatilgan yoki qayta tashkil qilingan vazirlik va idoralarning tegishli huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarorga muvofiq "2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqilib, uni amalga oshirish mexanizmlari va yo'l xaritasi shakllantirilgan edi.

Ta'lim va klaster so'zining o'zaro bog'liqligi xususida bir qator tadqiqotchilar ilmiy mulohazalarini bildirib, uning mazmun mohiyatl haqida quyidagi ta'riflar ilgari surilgan.

Y.P.Belan klaster yondashuviga o'tish zaruratini kasb-hunar ta'limi tizimi samaradorligini oshirish maqsadida manfaatdor tomonlar sa'y-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shakli sifatidagi afzalliklari bilan ham izohlaydi.

Shuningdek, uning nuqtayi nazaricha ta'lim klasterini shakllantirish va rivojlantirish kasbiy ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirishda muhim ahamiyat sohalara integratsiya jarayonini yanada kasb etib, muvofiqlashtiradi.

Garvard universiteti professori M.Porter 1990-yilda biznes texnologiyalari sohasidagi klaster haqida fikr yuritib umumiy faoliyat bilan ajralib turadigan va bir-birini to'ldiruvchi ma'lum hududlarda faoliyat yurituvchi, jug'rofiy jihatdan bir-biriga bog'langan kompaniyalar va bog'liq tashkilotlar guruhi tushuniladi degan ilmiy mulohazani ilgari surgan.

Uning mulohazasiga ko'ra, dastlab sanoat va bilim talab qiladigan tarmoqlar uchun ishlab chiqilgan asta-sekin jamiyat faoliyatining boshqa sohalariga ham kirib kela boshlaydi, ko'p jihatdan klasterning keng qo'llanilishi, yuqori samaradorlik va tashkil etish qulayligi bilan bog'liq ushbu yondashuv

Klaster so'zning mohiyatini uni etimologiyasiga murojaat qilish orqali ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Klaster inglizcha ("Cluster" - "klaster") so'zdan olingan bo'lib, bir nechta bir xil elementlarning birikmasi va ma'lum xususiyatlarga ega mustaqil birlik degan ma'nolarni anglatadi.

Klaster bu ma'lum bir hududda faoliyat yurituvchi, umumiy faoliyat bilan tavsiflangan va bir-birini to'ldiruvchi qo'shni o'zaro bog'langan kompaniyalar va tegishli tashkilotlar guruhidir.

Respublikamizda dunyo hamjamiyati bilan barcha sohalarda faol Integratsiya jarayoni rivojlanib borayotganligi, inson-huquq va erkinliklarini barcha jabhada yuqori darajada tashkil etish, ularning tajribalaridan maqsadli va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonlar barcha kuchlarini jamiyatning muvofiqlashtiradigan va yuzaga olib chiqishiga zamin bo'lgan ta'lim tizimida ham sezilarli darajada aks etib, yangicha yondashuvlarni hayot tarziga aylantirib, aholining barcha qatlam va toifalari uchun ijtimoiy faollikni amalga oshirishga yo'naltirmoqda.

Xususan, bugungi kunda umumta'lim maktablarida inklyuziv talim faol amalga oshirilmoqda va alohida ta'limga muhtoj bolalar normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birgalikda o'qitilayapti.

A. Batalov tabiri bilan aytganda, inklyuzivlik alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun yagona ta'lim maydoni g'oyalariga asoslanib, turli xil ta'lim yo'nalishlariga ega.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan o'quvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi ta'lim muhit bo'lib, imkoniyati cheklangan bola maktabga ota-ona va qonuniy vakillar bilan kengashgan holda muvofiqlashtirilgan konsulin (psixologik, tibbiyot xodimi, pedagogik, defektolog va boshqa) xulosa va tavsiyalari asosida qabul qilinadi.

Inklyuziv davlat va jamiyat boshqaruv hayotida bir qancha qulaylik va omilkorlikni keltirib chiqarishi tabiiy hol.

Ammo ta'lim tizimida bu jarayon bir qator muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

Xulosa: Kuzatuvlar natijasida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalarga, jumladan, imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ham sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadigan, insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta'lim tizimidir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda muhim islohotlar amalga oshirilib, PQ-4860-son qaror hamda “2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi” asosida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilangan. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limni samarali joriy etish uchun pedagogik, tashkiliy va psixologik shart-sharoitlar uyg'un ravishda tashkil etilishi lozim. Eng avvalo, ta'lim muassasalarida maxsus tayyorlangan pedagog kadrlar, psixologik-pedagogik xizmatlar hamda zamonaviy moddiy-texnik baza mavjud bo'lishi zarur. Shu bilan birga, jamiyatda inklyuzivlik madaniyatini shakllantirish, ota-onalar va o'qituvchilarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, inklyuziv ta'limning to'laqonli amalga oshirilishi — har bir bolaning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, shaxs sifatida kamol topishi va teng huquqli fuqarolik mavqeiga ega bo'lishi uchun zarur poydevor yaratadi. Shu sababli, inklyuziv ta'limni rivojlantirish mamlakatimizning insonparvar, adolatli va taraqqiyparvar jamiyat barpo etish yo'lidagi muhim strategik yo'nalishlardan biridir.